

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIIY POTENSIALI	38-43
--	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZELOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Zokirov Sherzod</i> MAHALLIIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 31 August 2025**Accepted:** 15 September 2025**Published:** 30 September 2025*Article / Original Paper***USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MEDICAL TERMINOLOGY****Mukhammadieva Mashkhura Mustafaqulovna**Senior Lecturer, Department of Therapeutics and Pediatrics,
Faculty of Medicine, Karshi State University**Amirqulova Gulkhayo Murodullaevna**Trainee Lecturer, Department of Therapeutics and Pediatrics,
Faculty of Medicine, Karshi State University

Abstract. This article studies the methods of using modern pedagogical technologies in medical lessons, their impact on the quality and effectiveness of education. The article compares traditional teaching methods and interactive, multimedia, simulation, project-based and distance learning technologies. It also presents practices of using virtual reality and simulators in the formation of clinical skills, integrated approaches in the development of professional ethics and creative thinking. The results of the study show that modern pedagogical technologies are effective in individualizing the teaching process, increasing the accuracy of assessment and enhancing student motivation.

Keywords: medical lessons; medical education; terminology; pedagogical technologies.**TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH****Muxammadieva Mashxura Mustafaqulovna**

Qarshi davlat universiteti

Tibbiyot fakulteti davolash va pediatriya ishi kafedrası katta o'qituvchisi

Email: mashxura.muhammadiyeva@bk.ru**Amirqulova Gulxayo Murodullaevna**

Qarshi davlat universiteti

Tibbiyot fakulteti davolash va pediatriya ishi kafedrası stajyor o'qituvchisi

Email: amirqulova92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola tibbiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullari, ularning ta'lim sifatiga ta'siri va samaradorligini o'rganadi. Maqolada an'anaviy ta'lim metodlari va interaktiv, multimedia, simulyatsion, loyihaviy hamda masofaviy o'qitish texnologiyalari taqqoslanadi. Shuningdek, klinik ko'nikmalarni shakllantirishda virtual reallik va simulyatorlardan, kasbiy-etika hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish amaliyotlari keltiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayonini individualizatsiyalash, baholash aniqligini oshirish va talabalar motivatsiyasini kuchaytirishda samarali.

Kalit so'zlar: tibbiyot darslari; tibbiyot ta'limi; terminologiya; pedagogik texnologiyalar.DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N06>

Kirish. Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda pedagogik ta'lim berish usul va vositalari keskin o'zgarib bormoqda, ya'ni tibbiyot instituti talabalariga lotin tillarni o'qitish jarayonida o'qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiya hamda axborot vositalaridan samarali foydalanish zarurligini bugungi kun hayoti taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim berishning faqat an'anaviy usullarini qo'llash bilan samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. Mamlakatimizda Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, zamon talablariga javob beradigan mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivojisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki ilm-fan ishlab chiqarish, uning moddiy asosini yaratish, texnologik rivojlantirish va eng asosiysi-kadrlar bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bundan bir necha yil oldin biron – bir lotin tilidagi ma'lumotlarni tarjima qilish uchun mutaxassislariga murojaat etilar edi. Bugun esa har bir tibbiyot oliy o'quv yurtida puxta bilimga ega [1], malakali lotin tili o'qituvchilari faoliyat yuritib kelmoqda. Bundan tashqari o'qituvchilari orasida malaka oshirish kurslari, seminar va tajriba almashish darslari tashkil qilinmoqda. Shuningdek, har bir oliygohda, shuningdek Tibbiyot institutlarida ham o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda o'qituvchilar uchun ta'til davomida lotin tillarni o'rganish kurslari tashkil qilinmoqda. Zamonaviy tibbiyot ta'limi dinamik o'zgarishlarga duch kelmoqda. Tibbiy kasbiy kompetensiyalar faqat nazariy bilimdan emas, balki amaliy ko'nikma, axloqiy-huquqiy qarorlar va ijodiy fikrlashdan iborat. Shu sababli ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati tug'iladi. Interaktiv darslar, simulyatorlar, virtual reallik, multimedia va masofaviy o'qitish usullari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, o'rganish samaradorligini oshiradi. Maqola maqsadi zamonaviy texnologiyalarning tibbiyot darslaridagi imkoniyatlari, metodologik asoslari va amaliy natijalarini tahlil etishdan iborat. Tadqiqot savollari: qaysi texnologiyalar eng samarali, ularni qanday integratsiyalash mumkin va baholash qanday tashkil etilishi lozim?

Asosiy qism. Tibbiy terminologiyani o'qitish zamonaviy tibbiyot ta'limining asosiy elementidir, chunki aniq va bir xilda ishlatiladigan terminlar bemorlar xavfsizligi, ilmiy muloqot va kasbiy kompetensiyalar uchun juda muhim. Bugungi kunda pedagogik jarayonlarda integratsiyalashgan va texnologiyaga asoslangan yondashuvlar talabalarning lug'at boyligi, tushunish qobiliyati va amaliy qo'llash ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi [2].

Zamonaviy texnologiyalar interaktivlik, multimodallik, individualizatsiya va baholashning avtomatlashtirilishini ta'minlaydi. Tibbiy terminologiyani o'qitishda bu xususiyatlar terminlarni kontekstda o'rganish, og'zaki va yozma mashqlar, shuningdek klinik vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

Rolli o'yinlar, viktorinalar, gamifikatsiya elementlari (ballar, leaderbordlar) terminlarni motivatsion va qiziqarli tarzda o'rgatadi. Masalan, klinik holatlarga oid terminlarni topish va to'g'ri ishlatish bo'yicha jamoaviy tanlovlar talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi. Onlayn testlar, adaptiv ta'lim tizimlari va tilkorlik monitoring vositalari talabalarning terminologiya darajasini tez va aniq baholash imkonini beradi. Adaptiv testlar qiyinchilik darajasini talabani darajasiga moslashtirib, rivojlanishni kuzatadi. PBL yondashuvi orqali talabalarga real klinik masalalar berilib, ular terminlarni kontekstual ravishda izlab topishlari va qo'llashlari talab etiladi. Bu metod terminlarni faqat yodlash emas, balki ularni tahlil qilish

va muammoni hal etishda qo'llashni o'rgatadi. Tibbiy terminlar ko'pincha lotin yoki yunon kelib chiqishiga ega; prefiks, suffiks va ildizlarni o'rgatish orqali yangi so'zlarni tuzish qobiliyati shakllantiriladi. Morfemik tahlil, semantik xaritalar va leksik mashqlar yordamida talabalar mustaqil ravishda yangi terminlarni egallash imkoniga ega bo'ladi [3].

Texnologiyalar yordamchi vosita bo'lsa-da, o'qituvchi mentorlash, didaktik dizayn va baholash mezonlarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi texnologiyani maqsadga muvofiq tanlab, talabalarning klinik til ishlatishiga yo'l ko'rsatishi lozim. Kurslarni modullarga bo'lish, multimedia materiallarini qo'shish, AR/VR pilot loyihalarini joriy etish, o'qituvchilarni malaka oshirish va baholash uchun avtomatlashtirilgan vositalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ma'lumotlar maxfiyligi va klinik axloqiy me'yorlar e'tiborga olinishi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tibbiy terminologiyani o'qitishda samaradorlikni oshiradi, o'quv jarayonini individualizatsiyalash va amaliy kontekst bilan boyitadi. Biroq muvaffaqiyatli joriy etish uchun didaktik strategiya, infratuzilma va o'qituvchilarning malakasi bir xil darajada rivojlantirilishi zarur. Zamonaviy ta'lim jarayoni tez o'zgarayotgan muhitda ilmiy-amaliy yondashuvlarni, innovatsion metodlarni va pedagogik texnologiyalarni talab qiladi. Ayniqsa, tibbiyot fanlarini o'qitishda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni, kasbiy-etik qaror qabul qilish malakasini va ijodiy fikrlashni rivojlantirish muhimdir. Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga integratsiyalash talaba faoliyati, mustaqil o'rganish va baholash tizimini tubdan yaxshilash imkonini beradi. Ushbu matn tibbiyot darslarida qo'llanilayotgan asosiy pedagogik texnologiyalar, ularning afzalliklari, qo'llash usullari va joriy etishda yuzaga keladigan muammolarga bag'ishlangan. Lotin tilini o'qitishning maqsadi o'zida lug'at yordamida lotin tilidagi matnlarni o'qish uchun zarur grammatika va leksikani o'zlashtirishni aks ettiradi. Mazkur maqsadning ahamiyati shundaki, lotin tili va grammatikasini o'rganish orqali boshqa komponentlarni ro'yobga chiqarish mumkin. Shu sababli lotin tili grammatikasini o'rganish va antik davr mualliflarining asarlarini o'qishga yo'naltirish amaliy faoliyat tajribasi bilan uyg'unlashtirilganda o'zining samarasini beradi. Chunki leksika va grammatika amaliyotsiz juda tez unutiladi [4]. Lotin tilini o'qitish boshqa tillarni o'rganish singari o'zida mantiqiy tafakkur yuritish, tasavvur va ong birligi, fikriy jarayonlarni jadallashtirish kabi maqsadlarni aks ettiradi. Lotin tilini o'qitish jarayonida bo'lajak tibbiyot xodimlarida tibbiy terminologiyani o'zlashtirish, istalgan dori vositasining qo'llanilish sohasi haqida xulosa chiqarish imkoniyati yuzaga chiqadi. Lotin tilini o'qitish jarayonida talabalarning intellektual-madaniy rivojlanganlik darajasini dastlabki holatini tashxis etish quyidagi reja asosida amalga oshirildi: "Lotin tili va tibbiy terminologiya" fani bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy majmualarni tahlil etish; ilmiy tadqiqot metodlari asosida talabalarni intellektual-madaniy rivojlanish darajasini aniqlash; auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning orqali talabalarni intellektual-madaniy rivojlantirish samaradorligini baholash. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lotin tili va tibbiy terminologiya fani oliy hamshiralik ishi, stomatologiya, davolash ishi, pediatriya ishi, tibbiy biologiya ishi, tibbiy profilaktika ishi bakalavriat yo'nalishlarida o'qitiladi. O'quv-me'yoriy hujjatlarda mazkur fanni o'qitishning maqsadi sifatida talabalarga tibbiyotning anatomik, klinik va farmatsevtik bo'limlarining asosiy tushunchalari va kategoriyalarini grammatik qonuniyatlar asosida o'rgatish hamda amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini tarkib toptirish belgilab olingan. Fanning vazifalari sifatida quyidagilar aniqlashtirilgan: talabalarni nazariy bilimlar bo'yicha anatomik terminologiyada ot, urg'u qo'yish, otlarning lug'at formasi,

sifat, moslashgan va moslashmagan aniqlovchi, birlik va ko'plik formasi, otlarning turlanishi, kelishik, son; klinik terminologiyada lotin tilidagi tana a'zolarining yunon tilidagi variantini yodlash, suffiksatsiya, prefiksatsiya, negiz topish, to'g'ri tashxis qo'yish va qonunga bo'ysunmagan tashxis qo'yish usullari [5]; farmakologiyada retseptni grammatik jihatdan xatosiz yozish, fe'l, shart va buyruq mayli, dorivor o'simliklar, dorilar, kislotalar, tuzlar, oksidlar va aforizmlar to'g'risida mushohada yuritish usullari bilan qurollantirish, fanning dolzarb muammolarini ochib borish, hamda lotin tilining tibbiyotdagi o'rni va roli haqida amaliy ko'nikmalar hosil qilish. O'quv dasturlarida "Lotin tili va tibbiy terminologiya asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar anatomik bilim asoslari, klinik tashxis qo'yishni to'g'ri o'rganishi va retseptni to'g'ri yozish to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishi; anatomik, klinik va farmatsevtik bo'limlar bo'yicha morfologik, sintaktik usullarni bilishi va ularni amaliyotda qo'llash; anatomik, klinik va farmatsevtik terminlarni amaliy mashg'ulotda tahlil qilish usullarni qo'llashi, xulosa chiqarishi, muammoli vaziyatni hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plami va ulardan foydalanishi, ilmiy tushunchalarni tushuntira olishi, muammoli vaziyatlar bo'yicha yechimlarni qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerakligi belgilab berilgan [6]. O'quv rejasida nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish ko'zda tutilmagan bo'lib, fanni o'zlashtirish amaliy mashg'ulotlar doirasida tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida qo'yidagi masalalar o'rganiladi: tibbiy terminologiyaga kirish; lotin alifbosi; unli va undosh harflar; tana tuzilishiga tegishli terminlar; urg'u qo'yish qonuniyatlari; tana tuzilishi va bosh qismga tegishli anatomik terminlar; otlar: grammatik kategoriyalari va lug'at formasi; otning turlanishi; yuz, jag'ga tegishli suyaklar; sifat: grammatik kategoriyasi va lug'at formasi; ot bilan moslashuvi; og'iz bo'shlig'iga oid anatomik terminlar; murakkab anatomik terminlarning turlanishi; nafas olish tizimiga oid terminlar; otlarning kelishik qo'shimchalari; nafas olish tizimi; sifat darajalari: qiyosiy daraja (yurak tizimi oid); orttirma daraja (qon aylanish tizimiga oid); anatomik terminlarni birlik formasida ishlatilishi; otlarning turlanishi; bosh kelishik ko'plik formasi (siydik chiqarish tizimi); qaratqich kelishik ko'plik formasi (suyaklar); bosh va qaratqich kelishik ko'plik formada anatomik terminlarda ishlatilishi (eshitish tizimi); son: tartib va sanoq sonlar; so'z yasalishi; morfema; suffiksatsiya (tana tuzilishi va kalla suyagi (ensaga oid, chakkaga oid, peshonaga oid); prefiksatsiya; klinik terminologiya; tana tuzilishi va yuz-jag'ga oid klinik terminlar; a'zo va bosh qismlarni ifodalovchi dubletlar va ularning patologiyasining nomlari (bosh, tanglay, tish); nafas olish va yuqori qismga tegishli klinik terminlarni tuzish; klinik terminlar (milk va milkni tuzuvchi organlar); to'qimalar, sekretlar, yoshni bildirguvchi TE va og'iz bo'shlig'i tubini ifodalovchi klinik atamalar; so'lak bezlarini, chaynovchi muskullarni va faoliyatini bildiruvchi klinik terminlar; farmakologiyaga kirish; dori formalari (nafas olish tizimiga tegishli); retsept strukturasi va formasi (yurak tizimiga oid); retsepturada tabletka, sham va ko'z plyonkasini ishlatilishi (yozilishi); retsepturada kimyoviy elementlar; kislotalar; retsepturada oksidlar (siydik chiqaruv tizimiga tegishli); retsepturada tuzlar; kationlar va anionlar; retsepturada qisqartmalar. O'quv dasturlari tahlili madaniy tavsifdagi ayrim o'quv materiallari faqat mustaqil ta'lim mavzularida aks etganligini ko'rsatadi: lotincha hikmatli so'zlar va aforizmlar; qadimgi Rim madaniyati [7]; qadimgi Yunon madaniyati; Olimpiya o'yinlari tarixi; zamonaviy tillarda lotinchilik (ingliz, fransuz); alximiya o'rta asr madaniyatida g'ayri oddiy hodisa sifatida; xalqaro tibbiy emblemaning tarixi; diniy tabobat; "Gaudeamus" (Talabalar gimni); tibbiyot va san'at; qadimgi Rimning atoqli notiqdari; numizmatikada tibbiyot; lotin va yunon adabiyoti

yodgorliklarida tibbiyot; tibbiyot va salomatlik to'g'risida yunon va lotin epigrammalar; dunyoning yetti mo'jizasi; qadimgi rim adiblari; qadimgi yunon adiblari. Lotin tili va tibbiy terminologiya" fani bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy majmualar tahlili hamda tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini kuzatish mashg'ulotlar mazmunida madaniy tavsifdagi o'quv materiallarining deyarli uchramasligini ko'rsatadi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, antik davr madaniyati hodisalari va dalillari talabalarning faqat mustaqil ishlari tarkibiga kiritilgan. Dasturda keltirilgan adabiyotlar ro'yxatida ham mazkur fanning madaniy tavsifiga doir manbalar o'z aksini topmagan.

Interaktiv metodlar — muhokama, rolli o'yinlar, guruh loyihalari va case-studylarni o'z ichiga oladi. Tibbiyot ta'limida interaktivlik talabalarni klinik vaziyatlarni tahlil qilishga, kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga va tezkor qaror qabul qilishga o'rgatadi. Tibbiyotga oid darslarda esa interaktivlik ijodiy jarayonlarda hamkorlik, tanqidiy fikrlash va estetik qarorlarni o'stirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'qish samaradorligini kuchaytiradi. Simulyatsion mashg'ulotlar va virtual reallik (VR) texnologiyalari tibbiyot talabalari uchun xavfsiz muhitda amaliy ko'nikmalarni mashq qilish imkonini beradi. Realistik manikenlar, interaktiv simulyatorlar va VR-kvestlar jarayonni real hayot sharoitiga yaqinlashtiradi, xatolar oqibatlarini minimal darajada ushlab, tajriba orttirishga yordam beradi.

Matn, audio, video, animatsiyalar va interaktiv grafikalar kombinatsiyasi o'quv materiallarini xilma-xil va qamrovli qiladi. Tibbiyotda anatomik va fiziologik jarayonlarni vizual prezentatsiya yordamida tushunish osonlashadi.

Onlayn platformalar, video-laboratoriyalar va virtual darslar masofaviy o'qitishni ta'minlaydi. Aralash ta'lim (blended learning) esa an'anaviy mashg'ulotlar bilan onlayn faoliyatni uyg'unlashtiradi. Tibbiyot uchun bu nazariy materialni onlaynda o'zlashtirib, amaliy mashg'ulotlarni kampusda o'tkazish imkonini beradi [8].

PBL (Problem-Based Learning) va loyiha metodlari talabalarni real hayot muammolarini yechishga jalb etadi. Tibbiyot talabalari klinik holatlar asosida tashxis va davolash rejasini ishlab chiqadi. Bu metodlar mustaqil tadqiqot, ijodkorlik va erkin ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda o'qituvchining roli o'zgargan — u endi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini yo'lga qo'yuvchi, mentor va baholovchiga aylangan [9]. Formativ baholash usullari, portfoliolar va kompetensiyalarga asoslangan baholash talabalarning o'rganish jarayonini doimiy kuzatish va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Tibbiyot sohasida kompetensiyalarni baholashda obyektiv strukturalangan klinik imtihonlar (OSCE) va simulyatsion vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanadi[10].

Xulosa. Har bir atama ma'lum bir quyi tizimning elementidir, masalan, anatomik, gistologik, embriologik, terapevtik, jarrohlik, ginekologik, endokrinologik, sud-tibbiy, travmatologik, psixiatrik, genetik, botanika, biokimyoviy va boshqalar. Har bir kichik atama qabul qilingan tushunchalarning ma'lum ilmiy tasnifini aks ettiradi. ushbu ilmda. Shu bilan birga, turli xil quyi tizimlarning atamalari bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lib, makro-muddatli tizim darajasida ma'lum semantik aloqalar va aloqalardadir. Hozirgi zamon tibbiy atamalari – keng qamrovli va murakkab atamalardan deb hisoblash mumkin. Bunda bir necha ming yillik so'zlar va birikmalar mujassamlashgan. Tibbiy va biologik atamalarda ko'p asrlik an'analarni lotin tilining ishlatilishida alohida ahamiyatga ega. Lotin tilini o'qitish tibbiy atamalarining

asosini o'qitishdan boshlanadi. Tibbiyotda atamalar ishlatilishi juda muhim o'ringa ega va bo'lajak shifokorlardan ushbu atamalar va ularni tuzilishi, tarkibiy qismlari va so'z yasovchilarni mukammal o'rganishlari talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tibbiyot darslarining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv metodlar va simulyatsiyalar klinik ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Virtual reallik va multimedia murakkab jarayonlarni xavfsiz muhitda amaliy mashqlar orqali o'rganishga yordam beradi. Masofaviy va aralash ta'lim formatlari o'qitishni shaxsiylashtirishga va resurslarga kengroq kirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga texnologiyalarni joriy etishda o'qituvchilarning malaka oshishi, texnik infratuzilma va etika masalalari e'tiborda bo'lishi zarur. Amaliy tavsiya sifatida: texnologiyalarni o'quv reja va baholash tizimiga moslashtirish, o'qituvchilar uchun treninglar tashkil etish va pilot loyihalar orqali samaradorlikni kuzatib borish lozim.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Ниёзова, Н. (2022). Teletibbiyotni rivojlantirish–inson salomatligini saqlashda yangi bosqich. Materials of International student's conference: Digitalization is the future of medicine.
2. Ворончихин, П. А., Плахова, Т. Р., & Бабаина, Е. А. (2021). ПРИМЕНЕНИЕ ДИСТАНЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «ЛАТИНСКИЙ ЯЗЫК И ОСНОВЫ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ» В УСЛОВИЯХ COVID-19. In Медицинское образование XXI века: информационные компьютерные технологии при подготовке медицинских кадров (pp. 132-133).
3. Алибекова, Л. Р. (2024). Применение интерактивных методов обучения на занятиях русского языка для студентов медицинских вузов. Academic research in educational sciences, (1), 61-66.
4. Abdukhakim, Z., & Mehribon, P. (2025). SYNTHESIS, CRYSTAL STRUCTURE AND HIRSHFELD SURFACE ANALYSIS OF A 2-CARBOXYMETHYLTIO-5-PHENYL-1, 3, 4-OXADIAZOLE. Universum: химия и биология, 4(6 (132)), 31-35.
5. Саламова, З. М., Рамазанова, П. М., & Азизханова, А. Э. (2023). Роль современных педагогических технологий в повышении эффективности преподавания иностранного языка студентам медицинских вузов. Мир науки, культуры, образования, (2 (99)), 69-71.
6. Iskandarov, S. (2020). O 'zbekiston arablarining til xususiyatlari va etnolingvistik o 'zgarishlar. Uzbekistan: Language and Culture, 2(2).
7. Norkulov, D. T., Narkulov, S. D., & Iskandarov Sh, A. (2022). Alimova SG, Pardayev AA Umarova FS, Khudoykulov AB THE ROLE OF PHILOSOPHICAL THINKING AND PHILOSOPHICAL KNOWLEDGE IN UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, 39(4), 605-613.
8. Ниёзова, Н. III. (2014). Здоровый образ жизни и гигиеническая культура. The Way of Science, 50.
9. Abdiganievich, I. S. (2023). CHANGES IN ETHNIC IDENTITY OF UZBEKS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 42-46.
10. Kholikova, R. E., Narkulov, D. T., Abilov, U. M., Khudoykulov, A. B., Karimov, N. R., Iskandarov, S. A., ... & Niyozova, N. S. (2023). Impact of Renaissances in The History of Uzbekistan And Causative Factors of The Third Renaissance. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2518-e2518.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).